

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
243 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'aforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlarning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
“Intellectual mulk”, “Intellectual kapital”, “Nomoddiy aktiv” tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili.....	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili.....	216
Xatamov Nurbek Ochildiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Коллективизм и индивидуализм в межэтническом общении: культурные основания поведения в восточных и западных обществах	231
Айдарова Диана Смутуллаевна	



Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati..... 239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



DAVLAT ULUSHI 50 FOIZ VA UNDAN YUQORI BO'LGAN AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND SIYOSATI



Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi bosh inspektori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan hisoblanadigan va to'lanadigan dividendlar, ularni miqdorini aniqlash usullari keltirilgan. Chunki davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to'lanadigan dividendlar Davlat byudjetining daromadlar qismida salmog'li o'rinlarni egallamoqda. Shu sababli ularni buxgalteriya va soliq qonunchiligi hujjatlarida qanday aks ettirilishi juda muhim.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyatlari, dividend, sof foyda, soliq, davlat ulushi, soliq munosabatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki.

Abstract: This article presents the methods for calculating and paying dividends by state-owned enterprises and determining their amount. Because dividends paid by state-owned enterprises occupy a significant place in the revenue section of the state budget, it is very important how they are reflected in accounting and tax legislation.

Keywords: Joint-stock companies, dividend, net profit, tax, state share, tax relations, tax policy, state budget, tax administration, tax burden.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы расчета и выплаты дивидендов государственными предприятиями, а также определения их размера. Поскольку дивиденды, выплачиваемые государственными предприятиями, занимают значительное место в доходной части государственного бюджета, весьма важно, как они отражаются в бухгалтерском учете и налоговом законодательстве.

Ключевые слова: Акционерные общества, дивиденд, чистая прибыль, налог, доля государства, налоговые отношения, налоговая политика, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговая бремя.

KIRISH

So'nggi yillarda, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan hisoblanadigan va to'lanadigan dividendlar, ularni miqdorini belgilashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bunga sabab, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to'lanadigan dividendlar Davlat byudjetining daromadlar qismida salmog'li o'rinlarni egallamoqda.

Biroq, bugungi kunda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan dividendlarni hisoblash va to'lash tartibini belgilovchi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

Ushbu yo'nalish qisman "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunlari bilan tartibga solinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribada ko'plab tadqiqotlar dividend siyosatining kompaniya bozor qiymati, investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sirini empirik jihatdan isbotlagan. Modigliani va Millerning klassik nazariyasiga ko'ra, mukammal bozor sharoitida dividend siyosati kompaniya qiymatiga ta'sir qilmasligi mumkin. Biroq, real sharoitda axborot assimetriyasi, soliqqa oid farqlar, agentlik xarajatlari va investorlarda mavjud



daromad kutilmalari sababli dividend siyosati kompaniyaning moliyaviy pozitsiyasini belgilovchi muhim omilga aylanadi¹.

Keyingi yillarda dividend siyosatining amaliy jihatlari ustida olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, Lintner tomonidan taklif etilgan «qisqa muddatli barqarorlik modeli» dividend siyosatining izchil va barqaror bo'lishi investorlar ishonchiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan. Lintner o'z tadqiqotida kompaniyalar dividend siyosatini o'zgartirishdan ehtiyotkorlik bilan foydalanishini va foydaning barqaror qismi asosida dividend to'lashini ta'kidlagan².

Brigham va Ehrhardt dividend siyosatining investorlar kutgan daromadlari va aksiya bahosiga ta'sirini keng qamrovda tahlil qilib, kompaniyalar tomonidan qabul qilinadigan dividend qarorlar investorlar tomonidan "signal" sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi³. Bu "signal nazariyasi" dividend o'sishi kompaniyaning yaxshi moliyaviy holatini bildiradi, degan taxminlarga asoslanadi.

Shuningdek, Gochberg 2020-yilda dividend siyosatining davlat kompaniyalarida differensial tusga ega ekanini, xususi va davlat ishtirokidagi korxonalarda bu siyosat o'rtasidagi tafovutlar ko'plab noaniqliklar keltirib chiqarishini ta'kidlaydi⁴.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati va undagi soliq organining vazifalari bo'yicha so'z boradi. Jamiyat ta'sisчилari va buxgalterlar tomonidan dividendlarni hisoblashda lozim bo'lgan qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi.

Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining hamda davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu maqolada davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarni hisoblash, soliqlarni hisobga olish hamda buxgalteriya hisob tizimida aks ettirishni ko'rib chiqish rejalashtirilgan.

Bugungi kun amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari uchun dividendlarni taqsimlanishida 2 ta Qonun hujjati mavud:

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-mayda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida"gi har yilning yakunida kelgusi yil uchun qabul qilinadigan Qonuni;

Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalarda soliq yukidan tashqari Davlat byutjeti to'g'risidagi Qonun bilan har yil yakuni bo'yicha o'zining sof foydasidan dividendlarni taqsimlab, davlat ulushiga teng qismini davlat byudjetiga to'lab berish majburiyati yuklatilgan.

Misol uchun: "Binokor" AJning ustav kapitali 8 mlrd.so'mni tashkil etib, shundan:

davlat ulushi – 6 mlrd.so'm (75 foiz)

boshqa yuridek shaxs ulushi – 2 mlrd.so'm (25 foiz)

"Binokor" AJning 2024-yil yakunlari bo'yicha sof foydasi 12 mlrd.so'mni, taqsimlanmagan foydasi esa 3 mlrd.so'mni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son Qonuni 12-modda 13-qismiga binoan, davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyunda qabul qilingan "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori 3-qism 7-bandiga ko'ra, davlat soliq xizmati organlari davlat ulushi bo'lgan jamiyatlardan dividendlar Davlat byudjetiga undirishni amalga oshirishi belgilangan.

Shunga ko'ra, jamiyat umumiy yig'ilish qarori 2025-yilning 1-iyuliga qadar qabul qilinishi hamda kamida 50 foizini dividend (6 mlrd so'm) sifatida tasischilar o'rtasida taqsimlab, 2025-yilning 1-sentyabrigacha to'lab berishi lozim.

1 Modigliani F., Miller M. Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares // The Journal of Business. – 1961. – Vol. 34(4). – P. 411–433.

2 Lintner J. Distribution of Incomes of Corporations Among Dividends, Retained Earnings, and Taxes // The American Economic Review. – 1956. – Vol. 46(2). – P. 97–113.

3 Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. – Boston: Cengage Learning, 2017. – 992 p.

4 Gochberg L.M. Davlat korxonalarida dividend siyosatining institutsional xususiyatlari // Korporativ boshqaruv sharhi. – 2020. – №2. – B. 45–59.



Muddatida to'lanmagan dividendlarning davlat ulushiga tegishli qismi soliq organlari tomonidan majburiy undiruvga qaratiladi.

Bundan tashqari (O'RQ-370-son) Qonunning 53-moddasiga asosan, dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda jamiyatning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanishi qayd etilgan.

Yuqoridagi qonunchilik hujjatlarida dividendlarni hisoblash va to'lash tartibi to'liq qamrab olinmaganligi va boshqa sabablarga ko'ra, amaliyotda turli tushunmovchiliklar yuzaga kelib, korxonalar tomonidan e'tirozlar bildirilishiga va ularni og'ir iqtisodiy vaziyatga kelib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Davlat ulushi mavjud korxonalarining dividend siyosatida aniq bir tartibni ishlab chiqilishi dividendlarni hisoblash va to'lash sohasidagi muammolarni bartaraf qilish, davlat ulushi ustun bo'lgan korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va shu orqali aktivlari likvidligini ta'minlash hisobiga yangi aksiyadorlarni jalb qilish hamda amaldagi aksiyadorlar qiziqishini uyg'unlashtirib, korxonalarini uzoq muddatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat ulushi mavjud korxonalar soni (Aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, davlat korxonalari hamda davlat unitar korxonalari) 2 212 tani, shundan davlat ulushi:⁵

- 100 foiz bo'lganlari– 1 120 ta;
- 50-100 foiz oralig'idagilar – 742 ta;
- 50 foizdan pastlari – 350 tani tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat korxonalarining dividend siyosatida katta mablag'lar talab qiladigan yirik investitsiya loyihalari inobatga olinmasligi, korxonalar kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan dividend miqdoriga e'tibor berilmasligi, dividend miqdori korxonalarining hisobot yilidagi moliyaviy natijalari tashqi audit tomonidan tasdiqlanmasdan belgilanishi ushbu korxonalarining og'ir iqtisodiy vaziyatga kelib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shunga ko'ra, ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda, dividend (ajratmalar) to'lash tartibini belgilovchi alohida normativ hujjat loyahasini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Hujjatni ishlab chiqishda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar - Daniya, Finlandiya, Norvegiya, Yangi Zelandiya kabi davlatlar, shuningdek Singapur, Xitoy, Rossiya va Qozog'istonning tajribasi o'rganib chiqildi.

Masalan, Yangi Zelandiyada direktorlar kengashi kompaniyaning dividend siyosatini kapital tuzilmasi, foyda ko'rsatkichlari va investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarni inobatga olib, mulkdor vazifasini bajaruvchi vazirlik (idora) bilan kelishgan holda tasdiqlaydi.

Qozog'iston Respublikasida dividendlar miqdori har bir korxonaga individual yondashgan holda, ularning erkin muomaladagi pul mablag'lari, investitsiyalardagi ehtiyoji va iqtisodiy barqarorligini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Xuddi shuningdek, Singapur kompaniyalarining dividendlarga ajratiladigan mablag'lari ularning erkin muomaladagi pul mablag'lari bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-mayda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyunda qabul qilingan "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son Qarori
4. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi saytlari.
5. Gochberg L.M. Davlat korxonalarida dividend siyosatining institutsional xususiyatlari Korporativ boshqaruv sharhi. – 2020. – №2. – B. 45–59.

5 <https://davaktiv.uz/uz/corporate/?page=20>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100